

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISHI

Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti
1-kurs magistranti
Abduvasiyeva Marjona Anvarovna

Anotatsiya *Raqamli iqtisodiyotning bugungi kundagi dolzarbligi. Raqamli iqtisodiyotning qulaylik va yangi imkoniyatlari. Raqamli iqtisodiyot atamasining kelib chiqishi. Raqamli iqtisodiyotning barcha sohalaridagi beqiyos o'рни. Yurtimizda ham bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlangan tarmoqlari va bajarilayotgan ishlar.*

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya, innovatsion yondashuvlar, korporativ boshqaruv, infratuzilma, investitsiya.*

ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ И РАЗВИТИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Анотация *Актуальность цифровой экономики сегодня. Удобства и новые возможности цифровой экономики. Происхождение термина цифровая экономика. Неоценимая роль цифровой экономики во всех сферах. В нашей стране сегодня развитые отрасли цифровой экономики и проводимая работа.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, цифровые технологии, цифровая трансформация, инновационные подходы, корпоративное управление, инфраструктура, инвестиции.*

THE CURRENT STATE AND DEVELOPMENT OF CORPORATE MANAGEMENT IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY

Annotation *The relevance of the digital economy today. The convenience and new opportunities of the digital economy. The origin of the term "digital economy". The unparalleled role of the digital economy in all spheres. Developed sectors of the digital economy and the work being done in our country today.*

Keywords: *digital economy, digital technologies, digital transformation, innovative approaches, corporate governance, infrastructure, investment.*

KIRISH.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi iqtisodiyotning barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot korporativ boshqaruv tizimlarini tubdan o'zgartirmoqda. Korporatsiyalar uchun texnologiyalardan samarali foydalanish, strategik maqsadlarga erishishda muhim omil

bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruvning joriy holati, rivojlanish tendensiyalari va innovatsion imkoniyatlari tahlil qilinadi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi dunyo iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy munosabatlarning barcha sohalarida yangiliklar kiritish imkonini yaratdi va korporativ boshqaruv tizimining shakllanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Kompaniyalar o'z faoliyatini strategik boshqarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali raqobatbardoshlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni ta'minlashga intilmoqda.

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruvning joriy holati, mavjud tendensiyalar, shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonlari korporativ boshqaruvga qanday ta'sir ko'rsatayotgani tahlil qilinadi. Shuningdek, korporativ boshqaruvni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar va ulardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism.

Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan iqtisodiy faoliyat shaklidir. Bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), Internet of Things (IoT) va blokcheyn kabi innovatsiyalar raqamli iqtisodiyotning asosiy elementlari hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar korporativ boshqaruvga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda va yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruv zamonaviy texnologiyalarning ta'sirida tezkor o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Raqamli iqtisodiyotda korporativ boshqaruvni o'rganishda quyidagi asosiy jihatlarni hisobga olish muhim:

Raqamli texnologiyalar ta'siri: Bulutli hisoblash, sun'iy intellekt, "Big Data" texnologiyalari, IoT (Internet of Things) va blokcheyn kabi innovatsiyalar korporativ boshqaruv jarayonlarini qanday o'zgartirishi

Menejmentning raqamli transformatsiyasi: Zamonaviy korporatsiyalar o'zlarining biznes jarayonlarini raqamlashtirish orqali samaradorlik va moslashuvchanlikni oshirmoqda.

Raqamli xavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish: Korporativ boshqaruvda kiberxavfsizlik muammolari va ularning yechimlari.

Tashkilot madaniyati va liderlik: Raqamli iqtisodiyotga moslashish jarayonida liderlikning yangi modellari va xodimlar bilan ishlash usullarining rivojlanishi.

Huquqiy va me'yoriy asoslar: Raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruvga ta'sir ko'rsatadigan milliy va xalqaro qonunchilikning ahamiyati.

Maqolada yuqorida keltirilgan jihatlar tahlil qilinib, raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruvning istiqbollari hamda rivojlanish yo'nalishlari batafsil o'rganilgan.

Korporativ boshqaruvning raqamli transformatsiyasi-Raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruvning asosiy vazifasi – raqobatbardoshlikni saqlab qolish va samaradorlikni oshirishdir. Bu quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

☒ Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Raqamli platformalar orqali biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish.

☒ Katta ma‘lumotlardan foydalanish: Bozor talablarini aniqlash va xodimlarning samaradorligini oshirish uchun analitik vositalarni joriy qilish.

☒ Bulutli texnologiyalar: Ma‘lumotlarni saqlash va ularga masofadan kirishni ta‘minlash orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish.

☒ Sun‘iy intellekt: Qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish va strategik boshqaruvni takomillashtirish.

Korporativ boshqaruvda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishda yuzaga kelayotgan Ijobiy tendensiyalar:

Innovatsiyalarni joriy qilish: Ko‘plab korporatsiyalar sun‘iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalaridan faol foydalanmoqda.

Xalqaro standartlarga moslashish: Korporativ boshqaruv tizimlari xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilmoqda, bu esa global bozorga chiqishni osonlashtirmoqda.

Kiberxavfsizlikning kuchayishi: Ma‘lumotlar xavfsizligi masalasi boshqaruv tizimlarining ajralmas qismiga aylangan.

Korporativ boshqaruvda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar:

1. Kadrlar yetishmovchiligi: Raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha yetarli malakaga ega mutaxassislarning yetishmasligi.

2. Investitsiya talabining yuqoriligi: Raqamli texnologiyalarni joriy qilish katta moliyaviy resurslarni talab qiladi.

3. Texnologik xavf-xatarlar: Blokcheyn va sun‘iy intellekt kabi texnologiyalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning ommaviy qo‘llanilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Rivojlanish istiqbollari-Raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruvni rivojlantirish uchun quyidagi choralarni ko‘rish zarur:

☒ Raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish: Har bir korporatsiya raqamli rivojlanish bo‘yicha o‘z strategiyasiga ega bo‘lishi kerak.

☒ Kadrlarni tayyorlash: Zamonaviy texnologiyalarni tushunadigan va ulardan samarali foydalana oladigan xodimlarni tayyorlashga alohida e‘tibor qaratish zarur.

☒ Innovatsion ekotizim yaratish: Startaplar, ilmiy markazlar va korporatsiyalar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish orqali innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash.

☒ Huquqiy bazani mustahkamlash: Raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarni boshqarishda xalqaro standartlarga mos qonunchilikni ishlab chiqish.

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda dolzarb mavzulardan biridir. "Raqamli iqtisodiyot" atamasi birinchi bo‘lib 1995-yilda Don Tepkott muallifligida chop etilgan.

“Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intellekt asrida va’da xavf-xatar” (The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence) nashrida alohida tushuncha sifatida istiloh etilgan. Ushbu nashrda raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlariga fundamental innovatsiyalar (yarimo’tkazgichlar, protsessorlar), asosiy texnologiyalar (kompyuterlar) va bog’lovchi infratuzilmalar (internet va telekommunikatsiya tarmoqlari) ajratib ko’rsatiladi

Raqamlashtirishning ahamiyati va ta’sirini qanchalik ortib borayotganligini baholash uchun so’nggi o’n yillikdagi bir necha yirik texnologik kompaniyalar va raqamli platformalarning jahon bozoridagi kapitallarining ulushini ko’rish kifoya. Xususan, BMTning savdo va rivojlanish konferensiyasi ma’lumotlarida qayd etilganidek, bu ko’rsatkich 2018-yilda 16 foizni tashkil etgan bo’lsa, 2023-yilning oxiriga kelib 56 foizga yetgan. Xalqaro tajriba shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun davlat, aynan, ushbu sohalarda innovatsion loyihalarni qo’llab-quvvatlagan holda qulay ekotizmni yaratishi lozim

Xulosa va takliflar

Xulosa qiladigan bo’lsak, har bir mamlakatning o’sishi, rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun har bir sohada yangi-yangi o’zgarishlar, g’oyalar va vaqti-vaqti bilan o’zgartirilib turadigan yangicha tartiblar bo’lishi lozim. Bugungi davrda Raqamli iqtisodiyot va uni rivolanishi zamon talablaridan biridir. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruvning rivojlanishi kompaniyalar uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalarni samarali joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki raqobatbardoshligini ham ta’minlaydi. Shu bilan birga, korporatsiyalar kadrlarni tayyorlash, kiberxavfsizlikni ta’minlash va innovatsiyalarni joriy qilishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Raqamli iqtisodiyotga moslashish orqali korporativ boshqaruv yangi bosqichga chiqishi va global iqtisodiy o’sishga o’z hissasini qo’shishi mumkin.

O’zbekiston hayotida global taraqqiyotga hamohang ravishda yarixiy burilish davri boshlanganligini tasdiqladi. Raqamli iqtisodiyotni rivojklantirish to’g’risidagi har bir qonunlar va taklif, tavsiyalar o’z vaqtida amalga oshirilishi va keng targ’ib qilinishi lozim. Mamlakatimiz hayotida ham raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari allaqachon muvaffaqiyat bilan faoliyat ko’rsatmoqda. Jumladan, hujjatlar va kommunikatsiyalarning ommaviy ravishda raqamli vositalarga o’tkazilishini hisobga olib, elektron imzoga ruxsat berish, davlat bilan muloqot qilish ham elektron platformalarga o’tkazilmoqda. Albatta bu to’xtab qolmasligi lozim va boshqa sohalarda ham raqamli iqtisodiyotga o’tish ishlari jadal ravishda amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, davlat innovatsion va raqamli ekotizmni qo’llab-quvvatlash sohasida raqamli ta’limning zamonaviy metodlarini qo’llab-quvvatlashi, innovatsion xizmatlarni samarali tartibga solish normalarini ishlab chiqishi, yangi bozorlarni o’zlashtirishda

ko'maklashishi hamda texnologikk jarayonlarning chuqurlashuvida yuzaga chiqadigan rikslarni pasaytirish choralarini ko'rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

REFERENCES

1. <https://www.researchgate.net/publication/336675826>: The activities of banks in Uzbekistan in the modern digital economy
2. <http://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/en/home/countryinfo.html>.
3. Project Information Document/ Integrated Safeguards Data Sheet (PID/ISDS) Concept Stage | Date Prepared/Updated: 05-Sep-2018 | Report No:PIDISDSC24091 Public, : <http://www.worldbank.org/projects>
4. Nick Malyshev (nick.malyshev@oecd.org) or Celine Kauffmann (celine.kauffmann@oecd.org) OECD Regulatory Policy Division, <http://oe.cd/regpolicy>
5. Tokhirov A.I. "Writing control programs for computer numeral control machines" // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 5(86). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11810DOI10.32743/UniTech.2021.86.5.11810>
6. Tokhirov A.I. "Application procedure CAD/CAM/CAE - systems in scientific research" // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 6(87). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11836> DOI - 10.32743/UniTech.2021.87.6.11836
7. Tokhirov A.I. "Using the graphical editor "Компас 3D" in teaching computer engineering graphics" // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 7(88). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12076> DOI: 10.32743/UniTech.2021.78.8-3.12076 SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1601 Uzbekistan www.scientificprogress.uz.
8. Tokhirov A.I., Marasulov I.R. "CONTROL MODELS AND INFORMATION SYSTEM OF COTTON STORAGE IN THE CLUSTER SYSTEM" // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2021. 11(92). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12486>
9. Azamjon Ibrohim ugli Tokhirov, "Technological process development using CAD-CAM programs", "Science and Education" Scientific Journal, June 2021 / URL: <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1561>
10. Toxirov A'zamjon Ibrohim o'g'li, "METHODOLOGY OF TEACHING THREEDIMEN MODELING USING THE PROGRAM "KOMPAS-3D"", EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center,